



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№3(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 230 sahifa,
16-mart, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Katta guruh tarbiyalanuvchilarida kasb haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirish metodikasini innovatsion ekotizim sharoitida takomillashtirish	18
Uralova Fotima Baxtiyor qizi	
Malakali sportchilarning kommunikativ qobiliyatlarini takomillashtirishda sotsiologik yondashuv (gandbolchilar misolida).....	23
G. A. Valiyeva	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida motor alaliyali bolalarni ruhiy va nutqiy rivojlantirish usullari	27
Suyunova Surayyo Ulash qizi	
Sog'lom bola ekotizimining asoslari: ovqatlanish, immunitet va rivojlanish	31
Israilova Xusnida Adilovna	
Mobil ilovalar yordamida mustaqil o'qishni rivojlantirish	37
Raximova Feruza Najmiddinova	
Biologiya darslarida muammoli ta'lim texnologiyasini qo'llash orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish	42
Dauekeeva Gulistan Orinbaevna	
Talabalarga ingliz tilidagi matnlarni kommunikativ metod yordamida o'qish texnikasini takomillashtirish usullari	46
Mo'minova Mahliyo Axrorjonovna	
Velosiped haydashning afzalliklari.....	49
Raxmonova Go'zal Bobir qizi	
Компетентностный подход как стратегическая основа модернизации образования и его реализация в преподавании русского языка как иностранного в Узбекистане	54
Мирзакбарова Севда Бахиддиновна	
Umumta'lim maktablarida texnologiya fani mashg'ulotlarini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari va metodlari.....	58
Ziyamova Gulbaxor Tulabayevna	
Типы аббревиации в русском и узбекском языках: сравнительно-типологический анализ.....	62
Рахмонова Бахтигул Пайзилловна	
Maktabgacha ta'limda nutqni rivojlantirish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish metodikasi	65
Abidjonova Mushtariybonu Qobiljon qizi	
Tarbiyaviy tadbirlarni samarali tashkil etishda maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalarning o'zaro hamkorlik masalalari.....	71
Sanayeva Surayyo Bobonazarovna, Jabborova Shaxina G'affor qizi	
Qadriyatli yondashuv asosida talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish ..	76
G'aybullayev Quvonchbek G'olibovich	
Maktab o'quvchilarida stressga barqarorlik namoyon bo'lishining psixologik tahlili	83
Ismoilova N. Z.	
Yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda milliy qadriyatlarning o'rni.....	87
Karshiyev Jaxongir Abdirayimovich	
Funksional savodxonlikni rivojlantirishda o'qish savodxonligining o'rni va ahamiyati	91
Xatamova Munisa Mamadulla qizi	
Transformatsiyalash tizimi asosida o'quvchilarning loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi	95
Jurayeva Zulayxo Islomovna	
Zamonaviy boshqaruv nazariyalarida rahbar muloqoti (transformatsion, kommunikativ va ishtirokchi boshqaruv yondashuvlari asosida).....	102
Islamova Difuza Dilshodovna	



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik kompetentlikni tabaqalashgan yondashuv asosida rivojlantirish mazmuni	107
Begmatova Nasiba Mengnarovna	
Bo'lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta'limda subyektlar faoliyatini o'rgatish metodikasi	112
Dilshodov Abrorjon Dilshodjon o'g'li	
Pre-Reading Activities to Enhance Foreign Language Reading Comprehension: Reading "The Adventures of Tom Sawyer" in 10–11 Grades	118
Djumaniyazova Zulfiya Kaliyevna	
Nutq aktlarini o'rgatishda autentik materiallardan foydalanishning metodik imkoniyatlari (filologik yo'nalish talabalari misolida)	122
Fayzulloeva Chevar G'ayrat qizi	
Yangi O'zbekistonda talaba-yoshlarni milliy yuksaltirishda jadid-marifatparvarlari ilgari surgan g'oyalarning o'rni va roli	125
Mamadaliyev Abduvoxid Maxsitaliyevich	
Gimnastikaning O'zbekistonga kirib kelish va rivojlanish tarixi	128
N. Q. Mamasidova	
Uglevodorodlar tarkibini aniqlashda massa ulushiga asoslangan reflektiv yondashuv (7-9-sinflar misolida)	131
Maxamadiyev Sharofiddin Jumaboyevich, Smanova Zulayxo Asanaliyevna	
Screencasting materiallarini yaratish va ularni o'quv jarayonida qo'llash	134
Maxmudova Dilfuza Meliyevna, Ergashov Niyozxon Ilyozxon o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda so'z shakllanishini psixolingvistik asoslari	137
Moxirabonu G'aniyeva Adxam qizi	
Maktabgacha ta'limdagi muammolar va yechimlar: o'zbekiston respublikasi tajribasi	140
N. Sh. Miryusupova	
Interaktiv kartografik resurslar va ularning ta'lim jarayonida qo'llanilishining didaktik, kognitiv hamda metodik asoslari	143
Olimova Aziza Abdullayevna	
Mentorlik tizimining tarixiy ildizlari va rivojlanish bosqichlari	147
Oxunova Dilnoza Qaxxorjonovna, Abdumannonova Durdonaxon Shuxratjon qizi	
Talabalarining psixologik holati va stress omillarining prokrastinatsiyaga ta'siri hamda mustaqil ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlash usullari	150
Razakov Farxod Kuvondikovich, Rajabov Hikmat Toshevich	
Talabalarni stulda o'tirgan qiyofachi portreti ranglavhasini ishlashga o'rgatish metodikasi	154
Sadatov Chori Xolmuradovich	
Organik kimyo fanini o'qitishda teskari ta'lim va texnologiyalarning ahamiyati	158
Umrbekova Maftuna Ulug'bek qizi, Babanazarova Ayzada Omirbaevna, Abdulkakimova Gulziyba Ziyatdinovna	
Duduqlanishni bartaraf etishda kompleks metodlarini qo'llashning samaradorligi	162
Xasanova Barnoxon Abdusattor qizi	
Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini takomillashtirish	165
Xolbozorova Nasiba Xolbozar qizi	
Проектирование персонализированных образовательных сценариев в дошкольном образовании средствами генеративного искусственного интеллекта	168
Пак Диана Александровна	
Bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda STEAM yondashuvining roli	170
Atenov Jandarbek Dayrabay o'g'li	
Innovatsion ta'lim muhitida talabalarining kasbiy muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari	173
Bo'ltakov Sanjarbek Xazratqul o'g'li	
Alohida ta'lim ehtiyojlari mavjud bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim tizimining ahamiyati	176
Mehmonova Nodiraxon Yusufxon qizi	

Duduqlanish nutq kamchiligini korrektsiyalashning maxsus va integratsiyalashgan texnologiyalarini rivojlantirish.....	180
Boxodirova Gulasalxon Ibrohimovna	
Эссе как инструмент формирования и диагностики компетенций в системе высшего образования .	184
Шейхмамбетов Сервер Рефикович	
Matallar va folklor hikoyalari: maktabgacha ta'lim tashkilotlarida interaktiv dars texnologiyalari.....	188
Azimova Nodira Hikmatovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish va ularni sportga yo'naltirishning pedagogik asoslari.....	191
Norboyev Komiljon Jurakulovich, Rustamova Kamola Xayrulla qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'qitilishining ahamiyati.....	194
Burkhanova Sabo Tulanovna	
Oliy ta'lim muassasalarida O'zbekistonning eng yangi tarixini o'qitishning metodologik asoslari va muammolari	197
Norbutayeva Guzal Abdig'ofurovna	
Ta'lim tashkilotlarida sifatni boshqarish jarayonlarini tizimli rejalashtirishning nazariy va amaliy asoslari.....	200
Abdurashit Karimovich Avliyakulov	
Tarbiya darslari samaradorligini oshirishda abdulla avloniy pedagogik hikmatlaridan foydalanishni metodik tashkil etish.....	204
Daliyeva Eliza Zokir qizi	
Badiiy-tarixiy meros asosida bo'lajak pedagoglarning refleksiv tafakkuri va kasbiy identifikatsiyasini rivojlantirish	207
Qodirova Mavluda Maxodir qizi	
Adabiyot darslarida lirik asarlarni vizual yondashuvlar asosida o'qitish usullari.....	210
Sobitova Mahmudaxon Shuxratbek qizi	
ESG tamoyillarini ta'lim tizimiga joriy etish orqali talabalarda ekologik, ijtimoiy va boshqaruv ko'nikmalarini shakllantirish	216
Tursunova Shahzoda Baxromovna	
Социально-психологические факторы нарушения психологического здоровья в семье	219
Гулру Тургунова	



ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLARI MAVJUD BO'LGAN BOLALAR UCHUN INKLYUZIV TA'LIM TIZIMINING AHAMIYATI

Mehmonova Nodiraxon Yusufxon qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

Namangan filiali 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim tizimining ahamiyati, uning zamonaviy ta'lim jarayonidagi o'rni hamda samaradorlik omillari tahlil qilinadi. Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi barcha bolalar, jumladan rivojlanishida turli cheklovlari mavjud o'quvchilar uchun teng huquqli va sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini yaratishdan iborat. Inklyuziv ta'limning pedagogik, psixologik va ijtimoiy jihatlari, shuningdek, o'qituvchilar malakasini oshirish, ota-onalar hamda jamoatchilik bilan hamkorlikni rivojlantirishning dolzarbligi yoritiladi. O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limni joriy etish bo'yicha normativ-huquqiy asoslar hamda mavjud tajribalar tahlil qilinib, ta'lim jarayonini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, alohida ta'lim ehtiyojlari, maxsus pedagogika, integratsiya, reabilitatsiya, psixologik qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy moslashuv, differensial yondashuv, ta'lim tizimi.

Abstract: The importance of the inclusive education system for children with special educational needs, its role in the modern educational process, and the factors influencing its effectiveness are analyzed. The main objective of inclusive education is to ensure equal opportunities for all children, including students with developmental limitations, to receive quality education. The pedagogical, psychological, and social aspects of inclusive education are examined, along with the relevance of improving teachers' professional qualifications and strengthening cooperation with parents and the wider community. In addition, the legal and regulatory framework for the implementation of inclusive education in the Republic of Uzbekistan and existing practices are analyzed, and practical recommendations for improving the educational process are proposed.

Key words: inclusive education, special educational needs, special pedagogy, integration, rehabilitation, psychological support, social adaptation, differentiated approach, education system.

Аннотация: Анализируется значение системы инклюзивного образования для детей с особыми образовательными потребностями, её роль в современном образовательном процессе и факторы эффективности. Основная цель инклюзивного образования заключается в обеспечении равных возможностей получения качественного образования для всех детей, включая учащихся с ограничениями в развитии. Рассматриваются педагогические, психологические и социальные аспекты инклюзивного образования, а также подчёркивается актуальность повышения квалификации педагогов и укрепления сотрудничества с родителями и общественностью. Кроме того, анализируются нормативно-правовые основы внедрения инклюзивного образования в Республике Узбекистан и существующий опыт, а также предлагаются практические рекомендации по совершенствованию образовательного процесса.

Ключевые слова: инклюзивное образование, особые образовательные потребности, специальная педагогика, интеграция, реабилитация, психологическая поддержка, социальная адаптация, дифференцированный подход, система образования.

KIRISH

So'nggi yillarda dunyo miqyosida ta'lim tizimining demokratlashuvi va inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan islohotlar inklyuziv ta'lim konsepsiyasining dolzarbligini oshirmoqda. Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lish, sifatli ta'lim olish va o'z salohiyatini rivojlantirish huquqiga ega ekanligi xalqaro hujjatlar, jumladan, BMTning "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasida o'z aksini topgan. Shu nuqtayi nazardan, har bir ta'lim muassasasida barcha bolalar uchun teng sharoit yaratish, ularning ehtiyoj va imkoniyatlariga mos yondashuvlarni ishlab chiqish zamon talabi hisoblanadi.

Inklyuziv ta'limning asosiy vazifasi – alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun maxsus ajratilgan muassasalarda emas, balki umumta'lim maktablarida ta'lim olish imkoniyatini yaratish va ularni jamiyatga



moslashtirishdir. Bu jarayon o'quvchilarning nafaqat intellektual, balki ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Zero, bola tabiatan o'z tengdoshlari bilan muloqotda bo'lish, guruhda ishlash va o'z o'rnini topishga intiladi. Inklyuziv ta'lim aynan shu ehtiyojlarni o'quv jarayonida hisobga olib, moslashtirilgan metodika va pedagogik yondashuvlarni taklif etadi.

O'zbekiston Respublikasida ham inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, maxsus pedagog va psixologlarni tayyorlash, o'quv dasturlarini adaptatsiya qilish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Shunga qaramay, mazkur jarayonni yanada takomillashtirish, metodik qo'llanmalarni yangilash, ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish hamda jamoatchilikda inklyuziv tafakkurni shakllantirish kabi muhim vazifalar mavjud. Mazkur maqolada inklyuziv ta'limning nazariy asoslari, ijtimoiy-pedagogik ahamiyati, O'zbekiston sharoitida uni joriy etishning amaliy imkoniyatlari hamda dolzarb muammolar va ularning yechimlari yoritiladi. Maqola yakunida inklyuziv ta'lim tizimini yanada samarali tashkil etish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar taqdim etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Inklyuziv ta'lim masalasi zamonaviy pedagogika va maxsus pedagogika yo'nalishlarida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida o'rganilmoqda. Abdurahmonova M. va Xudoyorova N. o'zlarining "Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim asoslari" asarida inklyuziv ta'limning nazariy va metodologik asoslarini yoritib, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalarni umumiy ta'lim tizimiga integratsiya qilishning pedagogik mexanizmlarini tahlil qiladilar. Mualliflar ta'lim jarayonida differensial yondashuv, individual rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish va pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimi inklyuziv ta'lim samaradorligini ta'minlashda muhim omil ekanligini ta'kidlaydilar.

Maxsus pedagogika va logopedik yondashuvlar doirasida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalar bilan ishlash metodikasi Nishonova Z. tomonidan "Logopediya va defektologiya asoslari" asarida batafsil tahlil qilingan. Tadqiqotda nutqiy, intellektual va psixologik rivojlanishida qiyinchiliklari mavjud bo'lgan bolalarni aniqlash, ularni diagnostika qilish hamda ta'lim jarayonida mos pedagogik metodlardan foydalanish zarurligi asoslab beriladi. Salamov B. esa "Psixologik-pedagogik diagnostika asoslari" asarida o'quvchilarning rivojlanish darajasini aniqlash, monitoring olib borish va individual ta'lim rejasini ishlab chiqish inklyuziv ta'limning muhim tarkibiy qismi ekanligini ko'rsatadi.

Inklyuziv ta'limni tashkil etishning pedagogik yondashuvlari Qodirova N. tomonidan ilmiy jihatdan asoslangan bo'lib, muallif inklyuziya jarayonida o'qituvchi kompetensiyasi, pedagogik texnologiyalar va ta'lim muhitini moslashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratadi. Shuningdek, Jumanazarova G. tadqiqotlarida oilaviy muhit va ota-onalar bilan hamkorlik inklyuziv ta'lim samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanadi. Muallifning oilaviy tarbiya samaradorligi hamda pedagogik texnologiyalarni qo'llashga oid ilmiy ishlari alohida ehtiyojli bolalarning ijtimoiy moslashuvi va tarbiyaviy jarayonini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro miqyosda inklyuziv ta'lim konsepsiyasining shakllanishida BMT tomonidan qabul qilingan Nogi-ronlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. UNESCO tashkilotining Inclusive Education: Guidelines for Policy Makers qo'llanmasida inklyuziv ta'limni davlat siyosati darajasida rivojlantirish, barcha bolalar uchun teng ta'lim imkoniyatlarini yaratish va ta'lim muhitini moslashtirish zarurligi ta'kidlanadi. Booth T. va Ainscow M. tomonidan ishlab chiqilgan Index for Inclusion modeli hamda Mittler P. tadqiqotlari inklyuziv ta'limni rivojlantirishda ijtimoiy integratsiya, ta'limda tenglik va hamkorlik muhitini yaratish muhimligini ilmiy asoslab beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim tizimining samaradorligini aniqlash maqsadida bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Ma'lumotlar pedagogik kuzatuv, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash hamda umumlashtirish usullari orqali yig'ildi. Shuningdek, inklyuziv ta'lim jarayonida o'qituvchilar faoliyati, o'quvchilarning ta'lim jarayoniga moslashuvi va pedagogik yondashuvlarning samaradorligi kuzatuv va tahlil orqali o'rganildi. Olingan ma'lumotlar tizimli tahlil, qiyosiy tahlil hamda mantiqiy umumlashtirish metodlari asosida qayta ishlanib, inklyuziv ta'lim jarayonining pedagogik va ijtimoiy samaradorligi baholandi. Tadqiqot natijalari mavjud ilmiy manbalar bilan solishtirilib, umumiy xulosalar chiqarildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Inklyuziv ta'lim – bu alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarni umumiy ta'lim jarayoniga integratsiya qilish hamda ularning imkoniyatlariga moslashtirilgan o'quv sharoitlarini yaratish tamoyiliga asoslanadi. Ushbu ta'lim modeli barcha bolalarga bir xil ta'lim olish huquqini kafolatlaydi, ular orasidagi farqlarni cheklov emas, balki ta'limni boyituvchi omil sifatida ko'radi. Inklyuziv ta'lim nazariy jihatdan gumanistik yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, konstruktivistik pedagogika va ijtimoiy integratsiya konsepsiyalariga tayanadi.



Bu ta'lim turi faqatgina nogironligi bo'lgan yoki rivojlanishida qiyinchiliklari kuzatilgan o'quvchilarni emas, balki iqtidorli, o'rganishda qiyinchiliklarga duch keluvchi hamda ijtimoiy moslashuvi past bo'lgan bolalarni ham qamrab oladi. Demak, inklyuziya barcha farqlarni qabul qilish va har bir o'quvchi uchun rivojlanish imkoniyatlarini ta'minlashni o'zbek ta'lim tizimida muhim poydevor sifatida belgilaydi.

Mazkur toifa o'quvchilarning rivojlanishida individual farqlar mavjud bo'lib, ular sensor, intellektual, jismoniy, nutqiy yoki emotsional sohalarida aks etishi mumkin. Ta'lim jarayonida bu bolalarning ehtiyojlarini to'g'ri aniqlash uchun maxsus diagnostika, psixologik monitoring va rivojlanish darajasini baholash tizimi muhimdir. Bunday o'quvchilar uchun moslashtirilgan dars metodlari, ko'rgazmali vositalar, grafik va audio-vizual materiallar hamda o'zlashtirish sur'atlarini hisobga olgan individual ta'lim rejaları qo'llanishi zarur.

Psixologik nuqtayi nazardan ularda o'ziga ishonchsizlik, kommunikativ qiyinchiliklar, jamoadagi o'z o'rnini anglashda muammolar kuzatilishi mumkin. Shu sababli o'qituvchilarning empatik yondashuvi, ijobiy motivatsiya yaratish ko'nikmasi va bolalar bilan muloqot qilishdagi noziklik inklyuziv ta'lim samaradorligini oshiradi.

Inklyuziv ta'limning eng muhim vazifasi – ijtimoiy adolat va tenglikni ta'minlashdir. Bu nafaqat alohida ehtiyojli bolalar uchun, balki boshqa sinfdoshlar uchun ham o'quv jarayonini boyitadi. Inklyuziv sinfda o'qiyotgan sog'lom o'quvchilar biologik va psixologik farqlarni tabiiy holat sifatida qabul qiladi, ularni ajratish emas, balki qo'llab-quvvatlash zarurligini anglaydi. Bu esa bag'rikenglik, hamkorlik, ijtimoiy mas'uliyat va empatiya kabi insoniy fazilatlarni rivojlantiradi.

Shu bilan birga, inklyuziv ta'lim o'quvchilarning kelajakda jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasini, ijtimoiy moslashuvini va kasbiy o'sishini ta'minlaydi. Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar, moslashtirilgan o'quv vositalari hamda interaktiv metodlardan foydalanish ham bu jarayonning amaliy samaradorligini oshiradi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar doirasida inklyuziv ta'lim bo'yicha yirik tashabbuslar boshlangan. Davlat dasturlari orqali maxsus pedagogika yo'nalishlarida kadrlar tayyorlash, logoped va defektolog mutaxassislar sonini oshirish bilan bir qatorda umumta'lim maktablarida inklyuziv sinflar tashkil etish ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, normativ-huquqiy asoslar takomillashtirilmoqda, ta'lim muassasalarini moslashtirish hamda reabilitatsiya markazlari bilan hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Biroq amaliyotda hali ham moddiy-texnik baza yetishmovchiligi, kadrlar malakasi muammolari, texnik vositalar taqchilligi, metodik qo'llanmalar yetarli emasligi hamda jamiyatda stereotip qarashlarning mavjudligi kabi muammolar uchrab turadi. Ushbu muammolarni bartaraf etish inklyuziv ta'limning kompleks rivojlanishiga xizmat qiladi.

Inklyuziv ta'limni samarali tashkil etish va uning samaradorligini oshirish uchun bir qator muhim omillar mavjud. Jumladan, moslashtirilgan o'quv dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish, maxsus texnik vositalar (Braille yozuvi, surdotarjima, audio qo'llanmalar) bilan ta'minlash, defektolog, logoped va psixologlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, o'qituvchilar malakasini muntazam oshirish, ota-onalarga psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish, bolalarning individual yutuqlarini monitoring qilish hamda ijtimoiy moslashuv dasturlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Bu komponentlarning uyg'unligi inklyuziv muhit shakllanishiga yordam beradi va ta'lim tizimida samarali natijalarni ta'minlaydi.

Dunyo miqyosida inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha ko'plab ilg'or tajribalar mavjud. Finlyandiya va Kanada ta'lim tizimlarida har bir o'quvchi uchun Individual ta'lim rejasi (IEP) joriy etilgan bo'lib, u bolaning ehtiyojlariga mos mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi. Yaponiya va Janubiy Koreyada moslashtirilgan sinflar, raqamli reabilitatsiya vositalari hamda o'yin texnologiyalaridan foydalanish keng tarqalgan. Ushbu tajribalar O'zbekiston uchun ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, inklyuziv ta'lim tizimini takomillashtirishda muhim o'rnak bo'la oladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarning ta'lim jarayonida teng huquqli qatnashishini ta'minlash va ularning shaxs sifatida rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Maqola davomida amalga oshirilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, inklyuziv ta'lim tizimi nafaqat ta'lim samaradorligini oshiradi, balki o'quvchilarning psixologik va ijtimoiy moslashuviga ham keng imkoniyatlar yaratadi. Bu tizim bolalarda tengdoshlari bilan muloqot qilish, hamkorlikda ishlash, o'ziga ishonchni mustahkamlash va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish ko'nikmalarini shakllantiradi.

O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limni joriy etish yo'lida muayyan yutuqlar qo'lga kiritilgan bo'lsa-da, mazkur jarayonni yanada takomillashtirish uchun moddiy-texnik ta'minotni kuchaytirish, maxsus pedagogik kadrlarni tayyorlash, ota-onalar bilan hamkorlikni rivojlantirish hamda jamiyatda inklyuziv tafakkurni shakllantirish zarur.

Shuningdek, xalqaro tajribani o'rganish, moslashtirilgan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish hamda innovatsion pedagogik yondashuvlarni amaliyotga joriy etish inklyuziv ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.



Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta'lim tizimining to'liq joriy etilishi bugungi kunda nafaqat pedagogik vazifa, balki muhim ijtimoiy ahamiyatga ega dolzarb masaladir. Bu jarayon barcha o'quvchilar uchun tenglik va adolat tamoyillariga asoslangan ta'lim muhitini yaratib, kelajakda jamiyatning har bir a'zosini faol, mustaqil va mas'uliyatli shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Inklyuziv ta'limni rivojlantirish orqali bolalarning imkoniyatlarini cheklash emas, balki ularni qo'llab-quvvatlash hamda jamiyatda o'z o'rnini topishlariga yordam berish imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni: <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. Abdurahmonova M., Xudoyorova N. Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim asoslari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019.
3. Nishonova Z. Logopediya va defektologiya asoslari. – Toshkent, 2018.
4. Qodirova N. Inklyuziv ta'limda pedagogik yondashuvlar. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
5. UNESCO. Inclusive Education: Guidelines for Policy Makers. – Paris, 2009.
6. Booth T., Ainscow M. The Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools. – London, 2011.
7. Mittler P. Working Towards Inclusive Education. – London: David Fulton Publishers, 2012.
8. Salomov B. Psixologik-pedagogik diagnostika asoslari. – Toshkent, 2017.
9. BMT. Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi. – Nyu-York, 2006.
10. Jumanazarova G. Oilaviy tarbiya samaradorligini oshirish borasidagi izlanishlar. "Maktabgacha va boshlang'ich ta'limning dolzarb masalalari" xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Farg'ona, 2022. – 414–419-b.
11. Jumanazarova G. Pedagogical technologies for improving family relations in the organization of family upbringing. "Современные исследования: теория и практика": Сборник статей международной научно-практической конференции. – 2024. – pp. 55–60.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.